

YOSHLARDA SOG‘LOM FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Ibroximov Farxodjon Anvarjon o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi
ibrohimovf2209@gmail.com (50 073 22 09)

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy dunyoqarash, XXI asr uchun dolzarb bo‘lgan sog‘lom fikrlash ko‘nikmasi va uni shakllantirishning zarurati, bugungi globallashuv sharoitidagi to‘siqlarning asl mazmuni ochib berilgan. Axborot-manipulyatsiya jarayonlari, uning vosita va usullari, xavflilik darajasi misollar yordamida yoritib berishga harakat qilingan. Mamlakatimiz taraqqiyoti yo‘lida fuqarolarimizning, ayniqsa yoshlarimizning g‘oyaviy bilimlari, ma‘naviy qiyofasi va bunyodkorlik potensialini oshirishda sog‘lom va mustaqil fikrlashning ahamiyatini ilmiy-tahliliy ochib berish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom dunyoqarash, mustaqil falsafiy fikrlash xususiyatlari, ijtimoiy shaxs, yoshlarga oid davlat siyosati, immunitet, ijtimoiy ong, strategema, mafkuraviy tahdid, overton oynasi, “FFF” dasturi, ma‘naviy tarbiya, argumentlash ahamiyati, Uchinchi RENESANNS poydevori.

Аннотация

В статье раскрывается современное мировоззрение, актуальный для XXI века навык здравого смысла и необходимость его формирования, истинное содержание препятствий в условиях сегодняшней глобализации. Информационно-манипулятивные процессы, их средства и методы, степень опасности пытались осветить на примерах. Научно-аналитическое раскрытие важности здорового и независимого мышления в повышении идейных знаний, духовного имиджа и творческого потенциала наших граждан, особенно молодежи, на пути развития нашей страны.

Ключевые слова: здоровое мировоззрение, особенности самостоятельного философского мышления, социальная личность, государственная политика в отношении молодежи, иммунитет, общественное сознание, стратегема, идеологическая угроза, программа Овертона, программа “ФФФ”, духовное воспитание, значение аргументации, фундамент третьего возрождения.

Abstract

The article reveals the modern worldview, the Common Sense skill relevant for the 21st century and the need for its formation, the true meaning of the obstacles in today's globalization conditions. Information-manipulation processes, its tools and methods, the level of danger have been tried to illuminate using examples. On the way to the development of our country, it is intended to scientifically-analytically reveal the importance of healthy and independent thinking in increasing the ideological knowledge, spiritual image and creative potential of our citizens, especially young people.

Key words: healthy worldview, features of independent philosophical thinking, social identity, state policy on youth, immunity, social consciousness, strategema, ideological threat, Overton Window, Program “FFF”, spiritual education, argumentation significance, foundation of the third Renaissance.

Kirish. Insoniyat butun tarixi davomida atrof-olam, undagi o‘zining o‘rni, hayotining farovon bo‘lishi, buguni va ertasi, tabiiy-ijtimoiy qonuniyatlar haqida fikr yuritib kelgan. Ana shu ijtimoiy-tabiiy ehtiyoj natijasida fikrlash – tafakkur tarzi shakllanib uzluksiz rivojlanishda davom etadi. Hatto bugungi kunga kelib, “Mafkuraviy poligonlar yadro poligonlaridanda xavfliroq tus olgan” bir sharoitda insoniyat tafakkurini boshqarish uchun kurash jarayoni avjiga chiqmoqdaki, bunda tafakkur yuritishning so‘g‘lom ruhda bo‘lishini ta‘minlash har bir xalq uchun dolzarb masala hisoblanadi. Inson faoliyatining samaradorligi, umrining farovon va saodatli bo‘lishi eng avvalo uning fikrlash tarziga, olamni va atrofidagi insonlarning xatti-harakatlarini munosib qabul qilishi bilan bog‘liq.

Bugungi kunda jamiyatimiz kishilari uchun mafkura, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy immunitet tushunchalari anchagina tanish bo‘lsada, lekin hayot sur‘atlarining beqiyos darajada tezlashuvi[1] deya ta‘riflanayotgan bugungi globalashuv davrida ijtimoiy hayotda ko‘plab yangicha masalalar va munosabatlar vujudga kelmoqdaki, bu jarayonlar mazkur tushunchalarga yangicha yondoshuvni talab etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Ma‘lumki, fikr-o‘ylarimiz so‘zlarimizga, so‘zlarimiz muomalamizga, muomalamiz xulq-atvorimizga, xulq-atvorimiz esa tadqirimizga aylanishimiz mumkin. Biz uchinchi RENESANNS davri poydevorini qurishni maqsad qilayotgan ekanmiz, buning uchun eng avvalo sog‘lom fikrlash xususiyatlarini hayotimizga singdirishimiz, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini barchamiz munosib anglashimiz hamda bu jarayonlarda faol pozitsiya bilan ishtirok etishimiz talab etiladi.

Xalqning islohotlarda birdamligi ana shu islohotlarning samarali natijasini kafolatlaydi. Bu o‘rinda bugungi kun jamiyat a‘zolaridan alohida shaxs sifatidagina emas, balki “ijtimoiy shaxs” sifatida munosabatda bo‘lishini talab qilmoqda. Ijtimoiy shaxs deganda o‘zining shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘ra oladigan hamda ana shu manfaatlar uchun shijoat bilan harakat qiladigan shaxsni tushunamiz. Afsuski bugungi kunda, atrofimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy jarayonlar, shu bilan birga mafkuraviy kurash jarayonlari, tahdidlar insonlar ongida, ayniqsa yoshlarda “shaxsiy manfaatlar ustunligi” haqida gipertrofiyaning sodir bo‘lishiga, bu esa o‘z navbatida sog‘lom va mustaqil fikrlash tarzimizga jiddiy ta‘sirini o‘tkazmoqda. Shaxning mafkuraviy immuniteti masalasi axborot oqimi keskin jadallashgan bugungi davr uchun yanada dolzarb ahamiyatga ega bo‘li bormoqda.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “Immunitet” so‘ziga quyidagicha ta‘rif berilgan: - tirik mavjudotlarning o‘z butunligi va biologik noyobligini buzuvchi yot omillardan himoyalaniishi, qarshilik ko‘rsatishi, rezistentligi.[2]

“Mafkuraviy immunitet” – ma‘naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, buzg‘unchi xarakterdagi

g'oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan ilmiy asoslangan tushuncha.

XXI asr yoshlari turli-tuman mafkuralar tajovuzi kuchayib borayotgan sharoitda yashamoqdalar. Birinchi Prezident Islom Karimov "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasini ko'tardi va "Mafkuraviy immunitet" tushunchasining ijtimoiy-siyosiy mohiyati haqida: *"Ma'lumki, har qanday kasallikni oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham Vatanga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Ana shunda johil aqidaparastlikning "da'vati" ham, ahloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi"*, deya ta'kidlagan edilar.[3]

Barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim shartlaridan biri bu sog'lom va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Bu borada kishilarimizda yot va zararli g'oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish, tanqidiy va sog'lom tafakkur tarzini kamol toptirishimiz zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish, munosib tafakkur yuritish, zararli g'oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo'lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. 1999-yil fevral, 2004 yilning martidagi Buxoro va Toshkent shahrida sodir etilgan terroristik voqealardan to'g'ri xulosa qilish muhim. Har bir davlat, jamiyatning qudrati uning ichki xavfsizligi va barqarorligiga tayanadi. Ya'ni jamiyat, millat o'z g'oyasida mustahkam tursa, ikkilanmasa, har qanday dushman qo'llashi mumkin bo'lgan mafkuraviy tahdidlaridan qo'rqmasa, bunday millatni yengish mumkin emas.

Mafkuraviy va geosiyosiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan yana bir tushuncha bu "Strategema" hisoblanadi. Strategema – obyektning psixologik moyilligi va vaziyatning boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lum bir muammoni hal qilishga yoki yashirin maqsadga erishishga qaratilgan harakatlar ketma-ketligi.[4] Xitoy madaniyatida bu tushuncha kamida uch ming yil avvalpaydo bo'lgan.[5] Xitoy qadimdanoq o'ziga xos tamaddun markazlaridan biri hisoblangan. Ming yillar davomida Xitoy xalqining falsafiy qarashlari konfutsiychilik, buddizm, dzen-buddizm va daosizmga asoslangan, boshqa madaniyatlardan farq qiladigan madaniyatni yaratdi. Xitoyda eng qimmatli ma'lumotlarni o'zida saqlagan kitoblar doimo sir tutilgan. Xitoyliklar o'z qonunlari bitilgan asarlarni asrlar mobaynida ko'p marotaba yo'qotib, vaqti kelganida yana osonlikcha ularni qayta topib olganlar. Xuddi ana shunday yashirin qonunlar bitilgan yodgorliklardan biri "36 stratagema" (hiyla-nayranglar)asari hisoblanadi.

Xitoy donishmandi Lao Szi o'zining "Dao de Szin" nomli kitobida quyidagi fikrni keltiradi: "Suv – dunyodagi eng yumshoq va muloyim modda, ammo qattiq va mustahkam ashyolarni yengib o'tishda u yengilmasdir va unga teng keladigan narsa bu olamda yo'q. Muloyim qattiqni yengadi, kuchsizlar kuchlini mag'lub etadi. Bu narsani hamma biladi, ammo kamdan-kam kishi bu bilimni amalda

qo‘llay oladi”. [6] Chindan ham bir qarashda oddiy haqiqat hisoblangan bu fikrni amaliyotga juda kam shaxslargina hayotga tadbiq eta olganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani tayyorlashda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan; qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, dialektik metodlaridan foydalanilgan.

Jahon tarixiga nazar tashlasak, juda ko‘plab manipulyatsion, mafkuraviy usullar haqida bilib olishimiz mumkin. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmidan o‘zbek xalqi milliy madaniyati, ma‘naviyati taraqqiyotida mustamlakalik davri boshlandi. Mustamlakachilik siyosatida Turkistonni nafaqat siyosiy, iqtisodiy, balki ma‘naviy mustamlakaga aylantirish rejasi turardi. Buni ularning o‘zlari ham yashirmas edilar. Bu haqida N.Ostroumov 1882-yil 30-avgust kuni Toshkent o‘qituvchilar seminariyasidagi yig‘ilishida “...musulmonlarimiz maorifining asosida ularni ruslashtirish... islomni buzish... umuman diniy jihatlarni buzish... yotmog‘i lozim degan bo‘lsa; Turkiston general gubernatori I.A.Kuropatkin esa kundaliklarida; “Biz 50 yil tub-joy aholini taraqqiyotdan chetda... tutdik”, - deb qayd etgan edi. [7]

Bugungi kunda ham manipulyatsiya jarayonlarida yanada yangicha usullar, inson aqlini shoshirib qo‘yuvchi dasturlar qo‘llanilmoqdaki, ularga qarshi shaxs faqat o‘zining yuqori mafkuraviy immuniteti bilangina javob bera olishi mumkin. Aks holda ularning qurboniga aylanadi. Masalan, uning xavfliligini bugungi Yevropadagi holat isbotlagan “Overton oynasi yohud yo‘q qilish dasturi”, kuch manipulyatsion uzoqqa mo‘ljallangan “FFF dasturi” bugun ko‘pchilikka ayon.

Odamning ma‘naviyatiga tahdid soladigan xavflar va ulardan o‘zini ongli himoya qilish ko‘nikmalari ta‘lim-tarbiya, ota-onalar o‘g‘itlari, yaxshilik va yomonliklarni ko‘rishi va bilishi jarayonida shakllana boradi. Mafkuraviy tortishuvlarda tahdid soluvchi ham, o‘zini himoya qiluvchi ham - g‘oyani ommalashtirish uslublaridan foydalanadi. Bu - mafkuraviy tarbiya uslublaridir. Demak, qaysi tomonning yengishini pirovard natijada ilmga asoslangan targ‘ibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar tortishuvi - targ‘ibot va tashviqotlar tortishuviga aylanadi, deyish mumkin.

Tahlil va natijalar. Insonlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan bunday jarayonlar umumiy nom ostida Mafkuraviy profilaktika deb yuritiladi.

Mafkuraviy profilaktika sohasidagi ishlar tizimli tarzda olib borilayabdi deb ayta olmaymiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–5618-son farmonida shunday fikrlar keltirilgan: “...hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.” [8]

Shu bois ham jamiyatning barcha sohalarini yetuk kadrlar bilan ta‘minlash har qachongidanda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-yanvardagi “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan

tasdiqlangan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida aynan mafkuraviy profilaktika tadbirlariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan Konsepsiyaning 21-bandida "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, farzand tarbiyasi, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish" vazifalari belgilangan.[9]

Yoshlarga oid davlat siyosatidagi har bir tadbirlarimizga sohalararo yondashuv ham yuqori samara beradi. Bu masala gumanitar sohaga aloqador bo'lganligi bois "Kapalak effekti" tarzida baho berishimiz va tushunishimiz lozim. "Chindan ham bir qarashda bu masalalar arziyas, kichik bo'lib tuyulsada, sekin asta katta natijalarga turtki bo'lishi, ulkan muvaffaqiyatlar olib kelishi aniq. Bunday yondashuv, turli sohaviy bilimlardagi aloqadorlik bir obyektini turli nuqtai nazardan tekshirish zarurati tug'ilganda yuzaga keladi".[10]

Inson tom ma'noda erkin yashashi uchun u avvalo o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishi lozim. Bu esa uning mantiq ilmiga, ayniqsa argumentlash nazariyasiga ehtiyojini ko'rsatadi. Bugun barcha jamiyatlarda bo'lgani singari bizning jamiyatimizda ham yot argumentlar qurboniga aylanayotgan shaxslar afsuski topiladi. Bu holat ziyolilar, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, barcha tarbiyachilar oldiga juda katta mas'uliyat yuklaydi.

Xulosa. Bugun biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi RENESANNS poydevorini yaratishni maqsad qilar ekanmiz, barcha sohalar qatori ma'naviyat, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga katta mas'uliyat bilan yondoshishimizni talab qiladi. Bu haqida Sh.Mirziyoyev: "Uchinchi Renessans g'oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog'i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejayu istiqbol dasturlarimiz, ta'lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat – barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog'i lozim" deya ta'kidlagan edi. Har bir jamiyat o'ziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Unga o'z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, e'tiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va boshqa qator talablar qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Jamiyat talabiga to'liq javob beradigan kishi turli davrlarda har xil atalgan. Farobiy uni "fozil kishi", tasavvuf namoyandalari "komil inson" deb ataganlar. "Har tomonlama rivojlangan shaxs", "uyg'un rivojlangan shaxs" atamalari ham qo'llanilgan.

Har qanday buyuk rejalar, buyuk g'oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Shu jihatdan, biz sog'lom fikrlash, mafkuraviy immunitet har birimizga qay darajada zarur ekanligini shaxsan o'zimiz his qilishimiz, barcha soha vakillari buni doimo yodda tutmog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent, Ma'naviyat. 2008, 77-bet
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

3. Karimov I. A. Milliy istiqlool mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar-T; «O'zbekiston», 2000 yil, 40 bet.
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Стратегема>
5. Смолян Г. Рефлексивное управление — технология принятия манипулятивных решений.
6. Лао Цзи – эр.ав 604-531 йиллар, қадимги хитой файласуфи, даосизм асосчиси. "Дао де Цзин" номли фалсафий ва ҳарбий асар муаллифи.
7. Hasanov B. V. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Ma'ruzalar kursi. (Sitata manbai. Ismoilbey Gaspirali// O'zbekim. 151 -b)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF – 5618-son Farmoni.(<https://lex.uz/ru/docs/-4149765>)
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.(<https://lex.uz/docs/-4676839>)
10. М.Н.Абдуллаева, Г.Ғ.Ғаффарова, Г.О.Жалалова. фанлараро ёндашувнинг мураккаб тизимларни тадқиқ этишдаги имконият ва истиқболлари. Монография. Тошкент. "НОШИР" 2020. 5-бет. (184 б)
11. F.A. Ibroximov. Yangi O'zbekiston jamiyatida huquqshunos-pedagog kadrlarga bo'lgan kompetensiyaviy talablar. Educational Research in Universal Sciences, 2023
12. Ibroximov Farxodjon Anvarjon o'g'li. Yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligi. NamDU Ilmiy Axborotnomasi. 2024/1. 788-794 pp.